ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIDA SHAXSIY-KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OBYEKTIV VA SUBYEKTIV OMILLAR

Ismoilov Alisher Ulug‘bekovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Orcid ID: https://orcid.org/0009-0002-3915-232X
https://doi.org/10.5281/zenodo.22915415

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarning pedagogik-psixologik mazmuni tahlil qilinadi. Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik tushunchasi o‘quvchining kelajakdagi ichki ishlar organlari faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari bilan bir qatorda kasbiy motivatsiya, mas’uliyat, intizom, stressga chidamlilik, kommunikativ kompetentlik, o‘zini boshqarish, refleksiya, huquqiy ong va kasbiy identifikatsiya kabi shaxsiy sifatlarning integrativ tizimi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda obyektiv omillar sifatida ta’lim-tarbiya muhitining tashkil etilishi, pedagogik jarayon mazmuni, moddiy-texnik sharoit, o‘qituvchi va murabbiylarning kasbiy kompetentligi, jamoaviy-psixologik muhit hamda kasbiy yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar ajratib ko‘rsatilgan. Subyektiv omillar tarkibiga esa o‘quvchining kasbiy motivatsiyasi, individual-psixologik xususiyatlari, o‘z-o‘zini baholashi, irodaviy sifatlari, stressga chidamliligi, kasbiy qiziqishi, qadriyatlar tizimi va refleksiv qobiliyatlari kiritilgan. Maqolada ushbu omillarning o‘zaro ta’siri asosida IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik modeli taklif etiladi.
Kalit so‘zlar: IIV akademik litseyi, shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik, obyektiv omillar, subyektiv omillar, kasbiy motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, psixologik tayyorgarlik, kommunikativ kompetentlik, stressga chidamlilik, refleksiya.

Аннотация. В статье анализируются педагогико-психологические особенности объективных и субъективных факторов, влияющих на развитие личностно-профессиональной готовности учащихся академических лицеев Министерства внутренних дел. Личностно-профессиональная готовность рассматривается как интегративная система знаний, навыков и умений, а также профессиональной мотивации, ответственности, дисциплинированности, стрессоустойчивости, коммуникативной компетентности, саморегуляции, рефлексии, правового сознания и профессиональной идентичности. К объективным факторам отнесены организация образовательной среды, содержание учебно-воспитательного процесса, материально-технические условия, профессиональная компетентность педагогов и наставников, социально-психологический климат и профессионально ориентированные практические занятия. К субъективным факторам отнесены профессиональная мотивация учащегося, индивидуально-психологические особенности, самооценка, волевые качества, стрессоустойчивость, профессиональный интерес, система ценностей и рефлексивные способности. Обоснована необходимость комплексного педагогико-психологического воздействия для эффективного развития личностно-профессиональной готовности будущих сотрудников органов внутренних дел.
Ключевые слова: академический лицей МВД, личностно-профессиональная готовность, объективные факторы, субъективные факторы, профессиональная мотивация, профессиональная идентичность, психологическая подготовка, коммуникативная компетентность, стрессоустойчивость, рефлексия.

Abstract. The article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of objective and subjective factors influencing the development of personal-professional readiness among students of academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs. Personal-professional readiness is interpreted as an integrative system combining professional knowledge, skills and abilities with professional motivation, responsibility, discipline, stress resistance, communicative competence, self-regulation, reflection, legal awareness and professional identity. Objective factors include the organization of the educational environment, the content of the educational process, material and technical conditions, professional competence of teachers and mentors, socio-psychological climate, and pro fessionally oriented practical activities. Subjective factors include professional motivation, individual psychological characteristics, self-esteem, volitional qualities, stress resistance, professional interests, value orientations and reflective abilities. The article substantiates the need for an integrated pedagogical and psychological approach to the development of personal-professional readiness of future internal affairs officers.

Keywords: academic lyceum of the Ministry of Internal Affairs, personal-professional readiness, objective factors, subjective factors, professional motivation, professional identity, psychological readiness, communicative competence, stress resistance, reflection.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun yuqori darajadagi kasbiy bilimga ega bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashning o‘zi yetarli emas. Huquqni muhofaza qiluvchi faoliyatning murakkabligi bo‘lajak xodimdan huquqiy bilimlar bilan bir qatorda yuqori mas’uliyat, intizom, kommunikativ madaniyat, vaziyatni tezkor tahlil qilish, qaror qabul qilish, hissiy holatini boshqarish, stressli sharoitlarda faoliyat yuritish va fuqarolar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlarini ham talab etadi. Shu sababli professional tayyorgarlik jarayonini shaxsning individual-psixologik imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb pedagogik-psixologik vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo‘lgan yuksak vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy fazilatlar, dastlabki kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega, aqlan va jismonan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash hamda ularni IIV oliy ta’lim muassasalariga kirishga maqsadli tayyorlashdan iborat.

Shundan kelib chiqib, akademik litsey bosqichini faqat umumiy ta’limni davom ettiruvchi bosqich sifatida emas, balki o‘quvchining kelajakdagi kasbiy yo‘nalishi, kasbiy qadriyatlari va shaxsiy sifatlari shakllanadigan dastlabki professionalizatsiya muhiti sifatida baholash mumkin.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki kognitiv, ijtimoiy, axloqiy-psixologik va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanishi ta’kidlanadi [1, b.28–30]. Xususan, harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarda kognitiv faoliyat, ijtimoiy kontekst, axloqiy-psixologik tayyorgarlik va refleksiya muhim komponentlar sifatida ko‘rsatilgan.

Bo‘lajak politsiya xodimlarining kasbiy kompetentligiga oid tadqiqotlarda esa kasbiy kompetentlikning kognitiv, shaxsiy-individual, boshqaruv hamda psixologik-pedagogik tarkibiy qismlardan tashkil topishi qayd etilgan [2, b.273–275].

Demak, IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda tashqi ta’limiy sharoitlar bilan bir qatorda o‘quvchining ichki psixologik resurslarini ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi IIV akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni pedagogik-

psixologik jihatdan tizimlashtirish hamda ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. “Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik” tushunchasining mazmunini aniqlashtirish;
2. IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
3. shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikka ta’sir etuvchi obyektiv omillarni tizimlashtirish;
4. subyektiv omillarning psixologik mazmunini ochib berish;
5. obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro ta’sir mexanizmini asoslash;
6. shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartlarini taklif etish.

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan va individual-differensial yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Empirik bosqich uchun kuzatish, suhbat, ekspert baholash, psixodiagnostik metodikalar, o‘z-o‘zini baholash va faoliyat natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning faoliyat jarayonida rivojlanishi, kasbiy kompetentlikning kompleks tuzilishga egaligi hamda professional identifikatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Bo‘lajak politsiya xodimlarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar natijasida professional identifikatsiyaning motivatsion-qadriyatli va xulq-atvor komponentlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani ham ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [3, b.167–171].

1. Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning pedagogik-psixologik mohiyati

“Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi mazmunan ikki o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni birlashtiradi: shaxsiy tayyorgarlik va kasbiy tayyorgarlik.

Shaxsiy tayyorgarlik o‘quvchining kelajakdagi faoliyat talablariga javob beruvchi psixologik sifatlari, qadriyatlari, motivlari, irodaviy xususiyatlari, hissiy barqarorligi, kommunikativ imkoniyatlari va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Kasbiy tayyorgarlik esa kelajakdagi xizmat faoliyati uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy kompetensiyalar, huquqiy savodxonlik va kasbiy faoliyatga yo‘nalganlikni ifodalaydi.

Shu jihatdan bizningcha, IIV akademik litsey o‘quvchisining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligi — bu uning kelajakdagi ichki ishlar organlari faoliyatini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, kompetensiya, motivatsiya, qadriyat, individual-psixologik va irodaviy sifatlarning o‘zaro integratsiyalashgan holatidir.

Mazkur ta’rifda tayyorgarlikning faqat “bilimga ega bo‘lish” jihati emas, balki bilimni real vaziyatda qo‘llay olish, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, kasbiy vaziyatni psixologik jihatdan to‘g‘ri baholash va mas’uliyatli qaror qabul qilish imkoniyati ham nazarda tutiladi.

Bo‘lajak huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning psixologik tayyorgarligi ularning kasbiy tayyorgarligining muhim asosi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda psixologik tayyorgarlikning kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan uyg‘unligi alohida ta’kidlangan [4, b.150–159].

2. Obyektiv omillar tizimi

Obyektiv omillar — o‘quvchining shaxsiy xohish-istagidan nisbatan mustaqil bo‘lgan, biroq uning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi pedagogik, ijtimoiy, tashkiliy va moddiy sharoitlardir.

Tadqiqot natijasida obyektiv omillarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ta’lim-tarbiya muhitining sifati

Akademik litseydagi ta’lim muhiti o‘quvchining kasbiy yo‘nalishini shakllantiruvchi asosiy tashqi omillardan biridir. Darslarning mazmuni, pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, intizom talablari va jamoaviy faoliyat o‘quvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Pedagog va murabbiylarning kasbiy-psixologik kompetentligi

O‘qituvchi yoki murabbiyning nafaqat fan bo‘yicha bilimdonligi, balki o‘quvchi psixologiyasini tushunishi, individual yondashuvni amalga oshira olishi, nizoli vaziyatlarni boshqarishi va kasbiy namuna bo‘la olishi muhimdir.

Pedagogning shaxsiy namunasi o‘quvchining kasbiy identifikatsiyasiga ta’sir etuvchi kuchli ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan biri hisoblanadi.

3. Kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni

IIV akademik litseylarining rasmiy vazifalarida dastlabki kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda o‘quvchilarni IIV oliy ta’lim muassasalariga maqsadli tayyorlash nazarda tutilgan.

Shuning uchun ta’lim mazmunida huquqiy bilimlar bilan bir qatorda muloqot, konfliktologiya, stressni boshqarish, jamoada ishlash, liderlik, kasbiy etika va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish elementlarini bosqichma-bosqich kuchaytirish maqsadga muvofiq.

4. Ijtimo iy-psixologik muhit

O‘quvchilar jamoasidagi o‘zaro munosabatlar, guruhiy qadriyatlar, o‘zaro hurmat, raqobat va hamkorlik nisbati shaxsiy-kasbiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir.

Sog‘lom psixologik muhit o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi. Aksincha, doimiy bosim, kamsitish, masxara, haddan tashqari jazolash yoki salbiy guruhiy ta’sir motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

5. Moddiy-texnik va amaliy tayyorgarlik sharoitlari

Kasbiy yo‘nalishdagi amaliy mashg‘ulotlar, sport va jismoniy tayyorgarlik, zamonaviy axborot texnologiyalari, simulyatsion topshiriqlar va amaliy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘quvchining faoliyatga tayyorgarligini oshiradi.

Huquqni muhofaza qiluvchi kadetlar bilan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda jismoniy va taktik mashg‘ulotlarning funksional tayyorgarlik, qaror qabul qilish va stressga chidamlilik bilan bog‘liq ijobiy natijalari qayd etilgan [5, b.108–116].

6. Oila va ijtimoiy muhit

Ota-ona, oila a’zolari, tengdoshlar va boshqa ijtimoiy guruhlarning munosabati ham o‘quvchining kasbiy tanloviga ta’sir qiladi. Kasbga ijobiy munosabatni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit o‘quvchining kasbiy maqsadlarini mustahkamlaydi.

3. Subyektiv omillar tizimi

Subyektiv omillar o‘quvchining ichki psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning individual darajasini belgilaydi.

1. Kasbiy motivatsiya

Kasbiy motivatsiya shaxsning kelajakdagi kasbni tanlashiga sabab bo‘luvchi ichki va tashqi motivlar tizimidir.

Motivatsiya faqat “IIVda ishlash istagi” bilan chegaralanmasligi lozim. Uning tarkibida:

- jamiyatga xizmat qilish istagi;
- adolatni ta’minlashga intilish;
- huquqiy tartibni himoya qilish;
- o‘zini kasbiy jihatdan rivojlantirish;
- mas’uliyatni qabul qilish;
- jamoaga foydali bo‘lish;

- kasbiy mavqe va rivojlanishga intilish
kabi motivlar uyg‘unlashishi zarur.

2. Kasbiy identifikatsiya

Kasbiy identifikatsiya o‘quvchining “Men kelajakda qanday mutaxassis bo‘laman?”, “Men tanlagan kasbning qanday qadriyatlari bor?”, “Men ushbu kasbiy jamoaga qanchalik mansubman?” kabi savollarga ichki javob shakllantirish jarayonidir.

Politsiya xodimlarining professional identifikatsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda trening asosidagi faoliyat professional rejalarning aniqlashuvi, kasbga nisbatan ijobiy munosabat va kasbiy o‘zlikni anglashning kuchayishiga yordam berishi aniqlangan [3, b.168–171].

3. Individual-psixologik xususiyatlar

Temperament, xarakter, qobiliyat, emotsional barqarorlik, ekstraversiya-introversiya, impulsivlik darajasi, muloqotga kirishuvchanlik kabi individual xususiyatlar kasbiy tayyorgarlikning individual sur’atiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bunda muhim metodologik prinsip shundan iboratki, muayyan psixologik xususiyatni “yaxshi” yoki “yomon” deb baholashdan ko‘ra, uning kelajakdagi kasbiy faoliyat talablariga mosligi aniqlanishi lozim.

4. Stressga chidamlilik

Ichki ishlar organlari faoliyati yuqori emotsional zo‘riqish, noaniqlik, konflikt va xavf bilan bog‘liq vaziyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun akademik litsey bosqichidan boshlab o‘quvchilarda stressni anglash, hissiy holatni boshqarish, vaziyatni qayta baholash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

5. Irodaviy sifatlar

Maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, sabr, o‘zini nazorat qilish, mas’uliyatni his etish va qiyinchilikni yengib o‘tish qobiliyati shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridir.

6. Kommunikativ kompetentlik

Bo‘lajak ichki ishlar xodimi turli ijtimoiy guruhlar vakillari bilan muloqot qilishi mumkin. Shu sababli tinglash, savol berish, fikrni aniq ifodalash, konfliktni yumshatish, empatiya va verbal hamda noverbal muloqot vositalaridan to‘g‘ri foydalanish kompetensiyalari alohida ahamiyatga ega.

7. Refleksiya

Refleksiya o‘quvchining o‘z xatti-harakati, qarori, kuchli va zaif tomonlari hamda kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini tahlil qila olish qobiliyatidir. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga oid tadqiqotlarda refleksiv bosqichning mavjudligi shaxsning kasbiy rivojlanishini ongli boshqarish imkoniyatini kuchaytirishi qayd etilgan [1, b.29–30].

4. Obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro ta’sir mexanizmi

IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini faqat tashqi yoki faqat ichki omillar orqali tushuntirish metodologik jihatdan biryoqlama yondashuvga olib keladi.

Masalan, zamonaviy o‘quv xonasi, malakali pedagog va mukammal o‘quv dasturi mavjud bo‘lsa-da, o‘quvchida kasbiy motivatsiya va mas’uliyat shakllanmagan bo‘lsa, kutilgan natijaga erishish qiyin.

Aksincha, o‘quvchining kuchli motivatsiyasi va yuqori qobiliyati mavjud bo‘lsa-yu, ta’lim muhiti, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va amaliy tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, uning salohiyati to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin.

Shu sababli quyidagi “obyektiv muhit → pedagogik ta’sir → subyektiv faollik → faoliyat tajribasi → refleksiya → shaxsiy-kasbiy rivojlanish” zanjiri asosiy rivojlantiruvchi mexanizm sifatida taklif etiladi.

5. Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartlari

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni ustuvor deb hisoblash mumkin.

Birinchi shart — diagnostik yondashuv.

Har bir o‘quvchining kasbiy motivatsiyasi, kommunikativ qobiliyati, stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini baholashi va refleksiv imkoniyatlarini dastlabki diagnostika qilish.

Ikkinchi shart — individual-differensial yondashuv.

Barcha o‘quvchilarga bir xil psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatish o‘rniga ularning individual xususiyatlariga mos rivojlantiruvchi topshiriqlarni tanlash.

Uchinchi shart — amaliy-vaziyatli ta’lim.

Real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan keyslar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, muloqot treninglari va qaror qabul qilish mashqlaridan foydalanish.

To‘rtinchi shart — psixologik treninglar.

Kasbiy identifikatsiya, stressni boshqarish, emotsional o‘zini boshqarish, konfliktlarni hal qilish, kommunikativ kompetentlik va liderlikka qaratilgan treninglarni tizimli tashkil etish.

Beshinchi shart — refleksiv faoliyat.

Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng “Men nimani to‘g‘ri bajardim?”, “Qanday xatoga yo‘l qo‘ydim?”, “Qanday holatda qiynaldim?”, “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” kabi refleksiv savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qildirish.

Oltinchi shart — pedagog-psixolog-murabbiy hamkorligi.

O‘quvchining shaxsiy-kasbiy rivojlanishini faqat bitta mutaxassis zimmasiga yuklamasdan, fan o‘qituvchisi, psixolog, guruh rahbari va murabbiy hamkorligida kompleks tashkil etish.

IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligi masalasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon oddiy “kasbga tayyorlash” jarayonidan kengroq mazmunga ega. Chunki o‘quvchi hali professional xodim emas, biroq uning kasbiy o‘zligi, qadriyatlari, motivatsiyasi va kelajakdagi kasbiy xulq-atvorining dastlabki psixologik asoslari aynan ushbu bosqichda shakllanadi.

Bu nuqtai nazar kasbiy identifikatsiya haqidagi tadqiqotlar bilan ham uyg‘unlashadi. P olitsiya ta’limi sharoitida maxsus treninglar o‘quvchilarning kasbiy identifikatsiyasi, kasbiy rejalari va kasb qadriyatlarini anglashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [3, b.167–171].

Shuningdek, bo‘lajak politsiya xodimlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda kasbiy motivatsiya va kasbiy muhim sifatlarning mezon sifatida qaralishi ham mazkur yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi [6, b.1975–1984].

Demak, shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning samaradorligi uchta asosiy darajaning uyg‘unligiga bog‘liq:

1) “Bilaman” — kasbiy bilim va nazariy tayyorgarlik;

2) “Bajara olaman” — amaliy ko‘nikma va kompetensiyalar;

3) “Mas’uliyat bilan bajara olaman” — motivatsiya, qadriyat, iroda, psixologik barqarorlik va kasbiy identifikatsiya.

Aynan uchinchi daraja bo‘lajak xodimning shaxsiy-kasbiy yetukligini belgilovchi muhim ko‘rsatkich sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. IIV akademik litsey o‘quvchilarining shaxsiy-kasbiy tayyorgarligi bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki kognitiv, motivatsion, kommunikativ, irodaviy, emotsional va refleksiv komponentlarning integrativ tizimidir.

2. Shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni obyektiv va subyektiv guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

3. Obyektiv omillar ta’lim muhiti, pedagogik ta’sir, amaliy tayyorgarlik, moddiy-texnik sharoit, jamoaviy-psixologik muhit va oilaviy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan belgilanadi.

4. Subyektiv omillar kasbiy motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, individual-psixologik xususiyatlar, o‘z-o‘zini baholash, irodaviy sifatlar, stressga chidamlilik, kommunikativ qobiliyat va refleksiyani o‘z ichiga oladi.

5. Obyektiv sharoitlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni ta’minlamaydi. Ular o‘quvchining ichki motivatsiyasi va faol subyektiv pozitsiyasi bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natija beradi.

6. Kasbiy identifikatsiya akademik litsey bosqichida rivojlantirilishi lozim bo‘lgan ustuvor psixologik komponentlardan biridir.

7. Muammoli vaziyatlar, keyslar, rolli o‘yinlar, treninglar va refleksiv topshiriqlar shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali vositalari sifatida xizmat qilishi mumkin.

IIV akademik litsey o‘quvchilarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy huquqni muhofaza qiluvchi kadrlarni tayyorlash tizimining muhim pedagogik-psixologik yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur jarayonni faqat o‘quvchilarga kasbiy bilim berish bilan cheklash yetarli emas. Kelajakdagi kasbiy faoliyatning murakkabligi o‘quvchida kasbiy bilim bilan bir qatorda mas’uliyat, intizom, kommunikativ kompetentlik, stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish, refleksiya va kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning samaradorligi obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. Obyektiv omillar uchun qulay pedagogik va psixologik muhit yaratilsa, subyektiv omillar o‘quvchining ushbu imkoniyatlardan faol foydalanishini ta’minlaydi.

Shu sababli IIV akademik litseylarida shaxsiy-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning istiqbolli modeli “diagnostika – motivatsiya – kasbiy identifikatsiya – amaliy faoliyat – psixologik trening – refleksiya – individual rivojlanish” ketma-ketligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur model o‘quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatga nafaqat bilim jihatdan, balki psixologik, axloqiy, kommunikativ va shaxsiy jihatdan ham tayyorlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Yuldashev A.K. Methodological foundations for developing professional competence in cadets of higher military educational institutions // International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research. – 2024. – Vol. 13, No. 11. – P. 28–30.
2. Шломін О.Ю. Зміст професійної компетентності працівників поліції // Психологічні та педагогічні проблеми професійної освіти та патріотичного виховання персоналу системи МВС України: тези доп. наук.-п ракт. конф. – Харків, 2018. – С. 273–275.
3. Shlomin O.Y. Training Technologies as Means for Forming the Professional Identity of Police Officers during Professional Genesis // Law and Safety. – 2020. – Vol. 76, No. 1. – P. 167–171. – DOI: 10.32631/pb.2020.1.24.
4. Калашник А. Психологічна підготовка майбутніх поліцейських як основа формування їх професійної готовності // Юридична психологія. – 2026. – №1(38). – С. 150–159.

5. Ibadullaev B. Enhancing law enforcement cadets' functional readiness through combat sambo training // World Bulletin of Physical Education and Sports Science. – 2026. – Vol. 2, No. 1. – P. 108–116.
6. Коваль Г.Ш., Катеринчук О.І. Критичне мислення як ключова компетенція професійної підготовки курсантів кримінальної поліції // Наукові інновації та передові технології. – 2025. – Вип. 2(42). – С. 1975–1984. – DOI: 10.52058/2786-5274-2025-2(42)-1975-1984.
7. Задорожна М. Основні характеристики сформованості професійної компетентності майбутніх дільничних офіцерів поліції // Збірник наукових праць Національної академії Державної прикордонної служби України. Серія: педагогічні науки. – 2020. – Вип. 22(3).
8. Makarova O.P. Обґрунтування комплексної програми розвитку професійної ідентичності для майбутніх поліцейських // Психологічні та педагогічні проблеми професійної освіти та патріотичного виховання персоналу системи МВС України: тези доп. наук.-практ. конф. – Харків, 2017. – С. 95–99.
9. Ковальчук В.Л., Хрусталева Т.А. Динамика профессиональной идентичности курсантов и слушателей образовательных организаций МВД России в процессе адаптации к учебно-служебной деятельности // Вестник Московского университета МВД России. – 2023. – №2. – С. 302–306. – DOI: 10.24412/2073-0454-2023-2-302-306.
10. Клеменко І.В. Особенности прогностической компетентности будущих полицейских в контексте программы психологического сопровождения профессиональной подготовки // Право. Экономика. Психология. – 2018. – №1. – С. 63–67.
11. Шломін О.Ю. Складові професійної компетентності майбутнього поліцейського // Психологічні та педагогічні проблеми професійної освіти та патріотичного виховання персоналу системи МВС України: тези доп. наук.-практ. конф. – Харків, 2017. – С. 239–242.
12. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, No. 1. – P. 1–14.
13. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-sentyabrdagi 767-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari to'g'risidagi Nizom.
15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Vazirlik tasarrufidagi o'quv muassasalari: IIV akademik litseylari faoliyatining asosiy yo'nalishlari.